O`ZBEK MILLIY HARAKATLI O`YINLARI VA ULARNING TASNIFI

Xabibillayeva Iroda Jaloldin qizi – Namangan shaxar 9-maktab jismoniy tarbiya fani o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`zbek milliy xalq o`yinlarining paydo bo`lishi, taraqqiy etib kelayotgani, ularning xalqimiz qadriyatlari, ma`naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati qanchalar muximligi haqida so`z yuritiladi. Hamda ularni tasniflab, misollar keltirib o`tilgan. Barcha milliy o`yinlar asosida yosh avlodni ham jismonan ham manan yetuk va komil shaxs qilib tarbiyalash yotadi.

**Kalit so`zlar.** “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” asari, tarixiy yodgorlik,o`yinlar kasssifikatsiyasi,’ Besh tosh”, “Lanka”, “Qirq tosh”, “Soqqa”. “Kim oladi”, “Oq terakmi, ko'k terak”, “Pahmoq kuchuk”, “G ‘ozlar”, “Oq quyonim. “Xo‘rozlar jangi”, “Arqon sakrash”, “Mindi”, “Podachi”, “Charxpalak”, “O‘rda to‘p”, “Chigi”,

Moziyga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o`zbek xalqi azal-azaldan insonni jismonan chiniqtiruvchi, salomatlikka ijobiy ta'sir etuvchi mashqlarga jiddiy e'tibor qaratishgan. Barcha milliy harakatli o`yinlar asosida o`sha insonni barkamollikka, yanada yetuk va komil inson bo`lib shakllanishi uchgun jismoniy kuch, o‘tkir zehn va yetti o‘lchab bir kesish, aqliy salohiyatiga ega bo‘lishni talab qiladi. Ajdodlarimiz shunga mos ravishda tayyorgarlik ko‘rib, ham ruhiy, ham jismoniy o‘sishga erishganlar. Umuman olganda, milliy sport turlarining barchasi ota-bobolarimizning yashash tarzi, madaniyati va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda

rivojlangan. O‘sha kezlarda kimdir chavandoz, kimdir qilichboz, yana kimdir mergan sifatida tanilgan. Shuningdek, turli o‘yinlar va mashqlar tufayli ajdodlarimizda har qanday holatdan olib chiqadigan chaqqonlik, yakkama-yakka olishuvga xos uquv shakllangan.

O`zbekiston Respublikasi 1-prezidenti Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida “Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi.” Demakki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xalq milliy o'yinlari, jumladan o`zbek milliy o`yinlari hox u oddiy bo`lsin yoki murakkab bo`lsin , barcha xalq-elatlar kashfiyotlari kabi insoniyat tarixining turli ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarida taraqqiy etib kelmoqda va bu yana davom etadi. Dastlab ular oddiy ko`rinishda bo`lgan bo`lsa, keyinchalik yanada sayqallanib, ularning elementlari qo`shilib bormoqda.

Respublikamizning turli mintaqalarida , viloyatlarida xalq harakatli o'yinlari aholining turli yosh va qatlamlari o'rtasida azaldan rivojlanib kelgan. Dastlab Rossiya imperiyasi ta`sirida juda ko`p qadriyatlar , o`yinlar, urf odatlar juda ko`p tazyiqlarga uchradi.Bu o`yinlar eskilik sarqiti va be`manilik sifatida ko`rsartilgan bo`lsada, mustaqillik davridan so`ng bizning o`zligimiz o`yinlariimiz qadriyatlarimiz yana o`zimizga qaytarilib berildi. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach xalq milliy harakaitli o'yinlari millatimiz qadriyatlari sifatida qayta tiklana boshlandi va hozirgi kunda nafaqat xalqimizning eng sevimli mashg'ulotiga aylandi. Ammo, shuni ham ta’kidlash zarurki, xalq milliy harakatli o'yinlarining ilmiy-uslubiy asoslari, ularning psixofunksional mohiyati, bolalar tarbiyasidagi o`rni, jismoniy sifatlar va sport mahoratini shakllantirishdagi ahamiyati hamda qiymati hali to`liq o`rganib chiqilmoqda.. O'zbek xalq o'yinlari xalqning o'ziga xos urf-odatlaridan, turmush sharoitidan, yashash iqlimi, tarixiy obidalar, atrof-muhit sharoitidan kelib chiqqan bo'lib, shularga yarasha jinsiga, yoshiga, salomatligiga ko'ra qo'llanilgan. Lekin shu vaqtgacha aksariyat mutaxassislar o'zbek xalq o'yinlariga alohida tasnif (klassifikatsiya) va tavsif (xarakteristika) berishni ko'zda tutmaganlar yoki yetarli darajada ahamiyat bermaganlar. O'zbek xalq o'yinlari o'z ichiga harakat jihatdan har xil jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarni qamrab olgan. Shu bois ularni yo'nalishlar bo'yicha ajrata bilish zarur deb topiladi. Demak ularni tasniflash (klassifikatsiyalash) zarur o'rinni egallaydi. O'zbek xalq harakatli o‘yinlarini quyidagicha turlarga ajratish mumkin.

Zarur malakalarini shakllantiruvchi -“Maymunchalar”, “Oq ayiqlar”; yurish, yugurish: “Quvlashmachoq”, “Mokki”; o‘tirish, turish: “Baqa”, “Tovuq va tulkilar”; to‘xtash, sakrash: “Qarmoqcha”, “Do'ngdan — do'nga”, “Qarichma-qarich”, “Mokisimon sakrashlar”.

Jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi- “Tortishmachoq”; tezkorlik: “Kun va tun”; epchillik: “To‘p uchun kurash”, “Lapta”, “Qirq tosh”; chidamkorlik: “Quvib yet”; egiluvchanlik: “ Ko ‘prik va, mushuk”, “ Otib qochar”.

Aqliy-ruhiy qobiliyatlami rivojlantiruvchi - “Eslab qol — bajar”, “Pirr etdi”, “O'ylab top”; hissiyot: “To‘xta”; tafakkur: “Shaxmat”; ayyorlik: “Vandan-zo‘ri”; jasurlik: “Cho‘nqa shuvoq”.

Nutq va talaffuzni shakllantiruvchi -“Kim oladi”, “Oq terakmi, ko'k terak”, “Pahmoq kuchuk”, “G ‘ozlar”, “Oq quyonim”.

Hisob-kitob va tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantiruvchi oyinlar. “Besh tosh”, “Lanka”, “Qirq tosh”, “Soqqa”.

Yilning turli fasllarida qo‘llaniladigan- “Varrak”, “Yomg'ir yog'aloq”, “Chillak”, “Topishmachoq top”, “Lanka”, “Tez ayt”, “Yong'oq”, “Qubba-1”, “Qubba-2”, “Soqqa”.

Suvda o`tkaziladigan - “Suvda quvlashmachoq”, “Tez suzish”, “Suv ostida suzish”, “Qurbaqa va laylak”, “Cho'rtan baliq”.

Turli yoshli bolalar va kattalar o'rtasida -“Quvlashmachoq”, “Bekinmachoq”, “Bayroqcha uchun kurash”, “Kun va tun”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Yong‘oq o'yini”.

O`g`il bolalar va qiz bolalar o'rtasida - “Eshak mindi”, “Besh tosh”, “Sopalak”, “Xo‘rozlar jangi”, “Arqon sakrash”, “Mindi”, “Xola-xola”, “Ovqat pishirish”, “Ovga chiqish”, “Urush-urush”, “Soqqa”, “Quloq cho‘zma”, “Durra”, “ Chori-chambar ” kabi milliy xarakatli o`yinlar ko`p o`ynaladi.

O‘zbek xalq milliy o‘yinlari o‘zining uzoq o‘tmishi, boy tarixiga ega bo‘lgan, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o‘tib kelayotgan, ma'naviy boyligimiz, qadriyatlarimizdan sanaladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, milliy qadriyatlarimiz, an'ana-yu udumlarimiz, shu jumladan, xalq o‘yinlarini qayta tiklashga katta e'tibor qaratildi.

Sportning an'anaviy turlari bilan birgalikda milliy sport turlari hamda xalq o‘yinlari ham tobora rivojlanib borayapti. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida o‘zbek kurashi bo‘yicha musobaqalar tashkil etilib, sportning shu turi ustalari o‘rtasida jahon chempionati muntazam o‘tkazib kelinayotgani O‘zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro qalbini g‘ururga to‘ldiradi. Aslida biz faxrlansak arziydigan milliy sport turlari juda ko‘p. Ularning orasida “Turon” kurashi, O‘zbek jang san'ati, uloq, ko‘pkari, chovgon, belbog‘li kurash va kamondan o‘q otish alohida e'tiborga molik. Ayniqsa, oxirgi yillarda O‘zbek jang san'atiga bo‘lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Bu sport turi milliy ruh bilan sug‘orilgan bo‘lib, yoshlarda abjirlik, epchillik kabi xususiyatlarni shakllantirishda, ularning o‘tkir zehnli va ko‘rkam qaddi-qomatli bo‘lib ulg‘ayishlarida muhim o‘rin tutadi.

Milliy harakatli o`yinlar ayniqsa, bolalar orasida keng yoyilgan. Xususan, mahallalarda o‘tkazilayotgan turli tadbirlarda aksariyat bolalar “Quloq cho‘zma”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Podachi”, “Charxpalak”, “O‘rda to‘p”, “Chigi”, “Qo‘tir echki” kabi o‘yinlarda o‘zaro bellashib, kim epchilu, kim chaqqonligini aniqlab oladilar. Shuningdek, “Uzuk olish”, “Igna sanchish”, “Poyondoz”, “Sultonchalar jangi”, “Igna, ip, angishovna” singari xalq o‘yinlari ham yillar osha bizgacha yetib kelgan. Mazkur o‘yinlar ishtirokchilariga sinchiklab qarasangiz, har birida abjirlik, murakkab holatni to‘g‘ri baholash, qiyin vaziyatdan chiqib ketish xususiyatlari qaror topganiga amin bo‘lasiz. Shundan xulosa qilish mumkinki, milliy sport turlari va xalq o‘yinlari yoshlarni sog‘lom voyaga yetkazish, ularga ta'lim-tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, milliy qadriyat va urf-odatlarni asrab-avaylashda ularning o‘rni beqiyos.

Darhaqiqat, milliy sport turlari va xalq o‘yinlari o‘ziga xos qadriyat sifatida avlodlardan avlodlarga o‘tib boradi. Ularni ardoqlagan yoshlar qalbida Vatanga muhabbat tuyg‘usi qaror topadi, milliy ruh shakllanib, xalqimizning an'ana va urf-odatlarini e'zozlash hissi yanada kuchayadi. Xullas, milliy o‘yinlar yoshlarni o‘zbekona tarbiyalashning eng ta'sirchan vositalaridan biridir. Bu o‘yinlar qanchalik keng yoyilsa, vatanparvar yoshlar safi shunchalik kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Xo`jayev F.Rahimqulov K.D.,Nigmanov B.B. “Sport va harakatli o`yinlar o`qitish metodikasi.2008-yil.
2.Usmonxo`jayev T.S,Xo`jayev F.1001 O`yin 1990-yil
3. Usmonxo`jayev T.S. Xo`jayev F.X Xarakatli o`yinlar O`qituvchi 1990-yil
4. .Usmonxodjaev T.S., Abdullaev Sh.A., Soliev A.O., Abdumalikova E.N. Bolalar va o‘smirlar sporti asoslari. - T.: ZamonPoligraf, 2014-YIL
5.Qurbonova M.A. 500 mashq va harakatli o'yinlar. II qism. T., 1999-yil
6.Qurbonova M.A., Qosimova M.U. Milliy va harakatli o'yinlar: O’quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2009-yil